

"O'zkimyosanoat" Ajda 2026-yilning birinchi yarim yilligida 12,2 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi

// 17.07.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob20260717>

2026-yilning birinchi yarim yilligida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. Hisobot davrida tarmoq korxonalari tomonidan 12,2 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, belgilangan reja 110,2 foizga bajarildi.



Mamlakat qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlar bilan barqaror ta'minlash maqsadida jami fizik holda 1 580,5 ming tonna mineral o'g'it ishlab chiqarildi. Shundan 1 200,3 ming tonna azotli, 202,8 ming tonna fosforli va

177,4 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan bir qator sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshdi. Xususan, avtomobil shinalari ishlab chiqarish 134 ming donaga ko'paydi. Konveyer lentasi ishlab chiqarish hajmi 5,6 ming pogon metrga, superfosfat 74,1 ming tonnaga, ammoniy sulfati 16,9 ming tonnaga, natriy sianidi 5,3 ming tonnaga, kalsinatsiyalangan soda 4,9 ming tonnaga, metanol 4,6 ming tonnaga, past zichlikdagi ammoniy nitrati (NANP) 2,8 ming tonnaga hamda polivinilxlorid (PVX) 1,3 ming tonnaga oshdi.

Erishilgan natijalar kimyo sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, mahsulotlar turini kengaytirish va ichki bozor talabini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning amaliy samarasi hisoblanadi.